

# “Adabiy meros” jurnalining yangi soni chop etildi

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining ilmiy nashri bo‘lgan jurnalning mazkur soni O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 80 yilligiga bag‘ishlangan.

“Buyuk shoir va qomusiy olim” nomli kirish maqola hamda “Bobur masnaviylarida hol va tasvir uyg‘unligi”, turkiyalik olim Ismet Çetinning “Taşkent’ten İstanbul’a Bir Aydın Yolculuğu: Abdullahzâde Tevekkül Babür” mavzuidagi maqolalar shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligiga bag‘ishlangan.

«Qadimiy bitiklar» ruknidan “Devoni hikmat»dan namunalar» nomli maqola joy olgan.

Amerika Qo‘shma shtatlari Michigan universiteti professori Temur Xo‘jao‘g‘lining “Alisher Navoiyning turkiy til boyligini Ko‘rsatish uslubi: g‘azal qofiyalari namunasida” maqolasida Navoiyning yetuklik chog‘idagi devonida foydalanilgan turkiy qofiyalarga e‘tibor qaratilgan. G‘azallardagi qofiyalar orasida turkiy tildagilari tanlab olingan. Chunki Alisher Navoiy turkiy fe‘llarni ko‘proq qo‘llash maqsadida o‘zining deyarli barcha g‘azallarining qofiyalarini turkiy so‘zlardan tanlagan. Navoiy Muhokamat-ul-lug‘atayn asarida turk tilining boyligiga namuna deb ko‘rsatgan turli fe‘l turlarini ham o‘z g‘azallarida qo‘llagan. Bu maqolada Alisher Navoiyning to‘rtinchi devoni bo‘lmish “Favoyid-ul-kibar” dagi 51 g‘azalda aniqlangan 44 xil qofiya tahlil qilinadi. Bu 44 xil qofiya ham ulug‘ shoirimizning turkiy til so‘z boyligi va qudratini she‘rxonlar hamda boshqa shoirlarga ko‘rsatish harakat qilganidan dalolat beradi. Navoiyning boshqa devon va masnaviylari ham shu jihatdan tadqiq qilinsa, bu mavzuni yanada chuqurroq yoritish mumkin bo‘ladi.


Tojikistonlik tadqiqotchi Fayzulloyev Baxtiyorning «Xo‘jandda navoiyshunoslik» maqolasida Navoiy merosining qo‘shni va qardosh mamlakatda o‘rganilishi masalalari tadqiq etilgan.

Turkiyaning Karabuk universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Sayidbek Boltaboyevning “Tarixda Navoiy asarlarining o‘g‘uz yurtlarida o‘qilishi va o‘g‘irilishiga doir» maqolasida Navoiyning o‘g‘uz tiliga tarjima qilingan uch asari, o‘g‘uzlar tiliga moslashtirilgan yoki o‘g‘uzcha muqobillari, izohlari yonma-yon ko‘rsatilgan asarlar haqida gap ketadi. O‘g‘uzcha izohlar berilgan nusxalardan namunalar ko‘rsatilgan holda tarixiy qiyosiy til tadqiqotlari uchun bunday nusxalarning ahamiyati ochib berilgan.

Professor Dilmurod Qu‘ronovning “Cho‘lponning uch noma'lum maqolasi” Cho‘lpon ijodi va hayotiga oid bo‘yicha yangi ma'lumotlar olishga imkon berishi bilan qimmatlidir.

Jurnalning “Oltin beshik” ruknida ham bir-biridan muhim bo‘lgan maqolalar chop etilmoqda.

Jurnallning ko‘pchilik uchun qiziq bo‘lgan “Tanqid va tahlil” ruknida D. Xalilova, M. Ibrohimova, N. Cho‘lliyeva, G.Matyobova, M.Otaboyeva kabi yosh olimlarning maqolalari joy olgan.



# ADABIY MEROS

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEVI

2023  
1-son (7)

**Bosh muharrir:**  
Jabbor Eshonqulov

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Otabek Jo'raboyev

**Mas'ul kotib:**  
Dilnoza Rustamova

**Muharrirlar:**  
Shahodatxon Imomnazarova  
Feruza Abdurahmanova

**Texnik muharrir:**  
G'iyosiddin O' narov

## Manzillimiz:

Toshkent shahri,  
Shayxontohur tumani  
Navoiy ko'chasi, 69-uy  
e-mail: adabiymeros@gmail.com  
Tel.: (99871) 241-02-75  
Jurnal 2020-yil 26-noyabrda  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi Axborot  
va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan №200936238  
raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.  
ISSN 2181-2500  
Tahririyatga kelgan  
va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Jurnal 2023-yil 28-martda  
nashrga berildi.

**Tahrir hay'ati:**  
Ahmedova Shoira  
Asadov Maqsud  
Abdirashidov Zaynabidin  
Bekimbetov Azamat  
Boltaboyev Hamidulla  
Davlatov Olim  
Jabborov Nurbay  
Jo'raqulov Uzoq  
Karimov Bahodir  
Kamilova Saodat  
Mamajonov Zokirjon  
Mahmudov Nizomiddin  
Mamatqulov Muzaffar  
Ochilov Nasim  
Pardayev Azamat  
Palimbetov Kamalboy  
Soriyev San'at  
Sulaymonov Mo'minjon  
Sulaymonov Isroil  
Rajabova Burobiya  
Rahmonov Nasimxon  
Turdimov Shomirza  
Tursunov Yusuf  
To'xliyev Boqijon  
Sheraliyeva Mashhura  
Shodmonov Nafas  
Shofiyev Obidjon  
Xalilova Dilbar  
Hamdamov Ulug'bek  
Hasanov Nodir  
Hasanova Shafolat  
Eshchanova Gohar  
Qalandarova Dilafroz  
Qosimov Abdug'ofur  
Qobilov Usmon  
Quronov Dilmurod  
Qobilova Zebo  
Yodgorova Mehribon  
Chuliyeva Nilufar

**Hakamlar hay'ati a'zolari:**  
Abdullalimov Bahrom (O'zbekiston)  
Abdullajon Axmatallyev (Qirg'iziston)  
Ayse Yücel Çetin (Turkiya)  
Açik Fatma (Turkiya)  
Almas Ulvi (Ozarbayjon)  
Anarboy Boldiboy (Qozog'iston)  
Ahmet Bican Ertilsun (Turkiya)  
Ali Duymaz (Turkiya)  
Asel Isayeva (Qirg'iziston)  
Baydemir Husayn (Turkiya)  
Bakchiyev Talatataali (Qirg'iziston)  
Basangova Tamara (Rossiya)  
Demir Necete (Turkiya)  
Fayzulloyev Baxtiyor (Tojikiston)  
Fikrat Turkman (Turkiya)  
Gurer Gulseven (Turkiya)  
Vahit Turk (Turkiya)  
Veli Savash (Turkiya)  
Ismat Çetin (Turkiya)  
Karimov Naim (O'zbekiston)  
Karl Rechl (Germaniya)  
Metin Ekici (Turkiya)  
Mirzayeva Salima (O'zbekiston)  
Muhiddinov Muslihidin  
(O'zbekiston)  
Ocal Oğuz (Turkiya)  
Emek Ushenmez (Turkiya)  
Eunkyoung Oh (Koreya)  
Rixsiyeva Gulchehra (O'zbekiston)  
Sakaya Heroki (Yaponiya)  
Sirojiddinov Shuhrat (O'zbekiston)  
Sodiqov Qosimjon (O'zbekiston)  
Selami Fedakar (Turkiya)  
Temur Khocaoğlu (AQSH)  
Zaytsev Ilya Vladimirovich (Rossiya)  
O'rayeva Darmanoy (O'zbekiston)

1/138

## "ADABIY MEROS" ILMIY JURNALI 2023 yil, №1 (7)

### USHBU SONDA:

Eshonqulov J. Buyuk Shoir va qomusiy olim.....	4
Asadov M. Bobur masnaviylarida hol va tasvir uyg'unligi.....	8
<b>QADIMIY BITIKLAR</b>	
Qurbonova E. "Devoni hikmat"dan namunalar" nashri xususida.....	13
<b>NAVOIY ABADIYATI</b>	
Temur Xo'jao'g'li. Alisher Navoiyning turkiy til boyligini ko'rsatish uslub: g'azal qofiyalari namunasida.....	12
Fayzulloyev B. Xo'jandda navoiyshunoslik.....	21
Rustamova D. Alisher Navoiy toshbosma devonining Istanbul nusxasi.....	34
<b>MANBASHUNOSLIK VA MATNSHUNOSLIK</b>	
İsmet Çetin. Taşkent'ten İstanbul'a Bir Aydin Yolculuğu: Abdullahzade Tevekkül Babür.....	46
Madirimova S. Mutrib she'rilarida matn tahriri va uning namoyon bo'lish usullari.....	49
Abdullayeva G. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining Zahiriddin Muhammad Bobur zali xususida.....	54
Bokiyev K. Huvaydoning "Rohati dil" manzumasida an'ana va o'ziga xoslik.....	58
Axmataliyev L. "Tazkirai Qayyumiy" asaridan qo'lyozma va nashr qiyosi.....	61
<b>JADID ADABIYOTI</b>	
Quronov D. Cho'lponning uch noma'lum maqolasi.....	67
<b>TILSHUNOSLIK</b>	
Boltaboyev S. Tarixda Navoiy asarlarining o'g'uz yurtlarida o'qilishi va o'g'irlilishiga doir.....	80
<b>OLTIN BESHIK</b>	
Jumayeva S. "Og'ish" dostonida falsafiy mushohadalar talqini.....	93
<b>TANQID VA TAHLIL</b>	
Xalilova D. O'zbek nasri va jahon detektiv adabiyoti an'analari: adabiy ta'sir va mushtaraklik.....	102
Ibrohimova M. Dunyo obrazining tarixiy takomili va bitiktoshlardagi badiiy ifodasi.....	107
Cho'liyeva N. Nazar Eshonqul hikoyalarda shahar makonining badiiy talqini.....	111
Matyoqubova G. Rauf Parfi she'riyatida inkor va rad etish.....	114
Otaboyeva M. Nonsens absurd...mi?.....	120
<b>FANIMIZ DARG'ALARI</b>	
Pinar Fedakar, Gökçe Emeç. Folklorga baxshida umr.....	125
Metin Ekichining ilmiy faoliyatiga oid bibliografiya.....	129